# XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING

# Q A R O R I

2025-yil 19-fevral VII-05-12-2-36-K/25 Kogon tumani

## Kogon tuman mahalliy budjetining 2024 yil yakunlari bo‘yicha prognoz ko’rsatkichlari ijrosi va daromadlar kesimida tasdiqlangan budjet parametrlariga kiritiladigan tegishli o‘zgartirishlar hamda 2025 yil boshidagi erkin qoldiq mablag’lari hisobidan yo’naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 143 va 148-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga muvofiq tuman hokimligining Kogon tuman mahalliy budjetining ***2024 yil yakunlari bo‘yicha prognoz ko’rsatkichlarining ijrosi va daromadlar kesimida tasdiqlangan budjet parametrlariga kiritiladigan tegishli o‘zgartirishlar hamda 2025 yil boshidagi erkin qoldiq mblag’lari hisobidan yo’naltirish to‘g‘risidagi*** hisobotni ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

## QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 143 va 148-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qaroriga asosan ***2024 yil yakunlari bo‘yicha prognoz ko’rsatkichlarining ijrosi va daromadlar kesimida tasdiqlangan budjet parametrlariga kiritiladigan tegishli o‘zgartirishlar hamda 2025 yil boshidagi erkin qoldiq mablag’lari hisobidan yo’naltirish to‘g‘risidagi*** Kogon tuman

hokimining 1-o‘rinbosari - Iqtisodioyt va moliya bo‘limi boshlig’i **U.Zadaevning** hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kogon tumani mahalliy byudjetining ***2024 yil daromadlari rejasining yillik ijrosi-bajarilishi soliq turlari bo‘yicha 1-ilovaga hamda choraklar kesimida prognoz ko‘rsatkichlariga aniqlik kiritilishi 2-ilovaga, 2025 yil boshidagi erkin qoldiq mablag’lari hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdorlari 3-ilovaga*** muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari kengashi deputatlari mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda qo‘shimcha manbalar asosida shakllantiriladigan tadbirlarga yo‘naltirish uchun “Ochiq byudjet” tizimi to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularning ushbu tadbirlarga faol ishtirokini ta’minlash maqsadida joylarda tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borsin.

4. **Kogon tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig’i o‘rinbosari (Sh.Narziev) va G‘aznachilik xizmati boshlig‘i (A.To‘qsanov)ga:**

-O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablari asosida mahalliy budjetning parametrlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish hamda parametrlarda ko‘zda tutilgan xarajatlarni, xususan birinchi darajali to‘lovlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlash;

-budjet xarajatlari rejasiga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda hisobga olish, tegishli hududiy budjet mablag‘i oluvchilarning xarajatlar miqdoriga aniqlik kiritish;

-budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni o‘rnatish topshirilsin.

5. **Tuman soliq inspesiyasi boshlig‘i (S.Axmedov)ga:**

-**2025 yil** uchun belgilangan daromadlar prognoz reja ko‘rsatkichlarini barcha soliq turlari kesimida to‘liq bajarilishini ta’minlash;

-budjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda mahalliy budjetga qo‘shimcha soliq tushumlarini tushirish manbalarini aniqlash va mavjud imkoniyatlardan to‘liq, samarali foydalanish topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari **U.Zadaev** zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi

Kengash raisi

QAZOQOV OTABEK NODIROVICH

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-05-12-2-36-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Kogon tuman mahalliy byudjetining 2024 yil daromadlari rejasining ijrosidan kelib chiqib, soliq turlari kesimida yillik prognoz rejaning bajarilishi hamda to‘liq ijrosini ta’minlash maqsadida kiritilgan o‘zgartirishlar**

| | ***1-ilova*** | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **T/r** | **Manbalar nomi** | **2024 yil** | | | | | |
| | | **Tas. Reja** | **Aniq. Reja** | **Kirgan o‘zgrish** | **Ijro** | **Bajarilishi** | |
| | | | | | | **Farqi** | **Foiz** |
| **1** | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| **2** | Aylanmadan olinadigan soliq | 8,879.0 | 9,133.0 | 254.0 | 7,983.6 | -1,149.4 | 87% |
| **3** | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 29,856.5 | 27,927.0 | -1,929.5 | 29,827.8 | 1,900.8 | 107% |
| **4** | Qat’iy belgilangan soliq | 653.0 | 600.0 | -53.0 | 689.9 | 89.9 | 115% |
| **5** | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| **6** | Aksiz solig‘i, jami | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| | - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| **7** | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| **8** | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 5,723.0 | 6,540.0 | 817.0 | 6,547.2 | 7.2 | 100% |
| **9** | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 9,018.5 | 8,767.0 | -251.5 | 10,220.4 | 1,453.4 | 117% |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **10** | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 11,488.0 | 12,265.0 | 777.0 | 12,521.2 | 256.2 | 102% |
| **11** | Nedra (noruda materiallari) | 980.0 | 656.0 | -324.0 | 696.1 | 40.1 | 106% |
| **12** | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq* | 4,486.0 | 6,471.0 | 1,985.0 | 5,759.0 | -712.0 | 89% |
| **13** | Davlat boji | 3,197.0 | 3,723.0 | 526.0 | 3,090.4 | -632.6 | 83% |
| **14** | Jarimalar | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 68.8 | 68.8 | 0% |
| **15** | Yigimlar | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| **16** | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 41.0 | 48.0 | 7.0 | 63.6 | 15.6 | 132% |
| **17** | Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0% |
| **18** | Boshqa tushumlar | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 1,043.4 | 1,043.4 | 0% |
| **Jami** | | **74,322.0** | **76,130.0** | **1,808.0** | **78,511.5** | **2,381.5** | **103%** |
| | | | | | | | |
| | | | | | | | |
| | *Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining bidirishnomalari hamda tegishli mahalliy byudjetlar va soliq turlari kesimida ijrosidan kelib chiqib, o‘zgartirishlar kiritiladi.* | | | | | | |
| | **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.* | | | | | | |

Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-05-12-2-36-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Kogon tuman mahalliy byudjetining 2024 yil daromadlari rejasining choraklar kesimidagi ijrosidan kelib chiqib, soliq turlari kesimida yillik prognoz rejaning to‘liq ijrosini ta’minlash maqsadida kiritilgan o‘zgartirishlar**

| | *2-ilova* | | | | | | | | | | | | mln.so‘mda |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **T/r** | **Manbalar nomi** | **1-chorak** | | | **2-chorak** | | | **3-chorak** | | | **4-chorak** | | |
| | | **Tas. Reja** | **Aniq. Reja** | **Kirgan o‘zgrish** | **Tas. Reja** | **Aniq. Reja** | **Kirgan o‘zgrish** | **Tas. Reja** | **Aniq. Reja** | **Kirgan o‘zgrish** | **Tas. Reja** | **Aniq. Reja** | **Kir-gan o‘zg-rish** |
| **1** | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **2** | Aylanmadan olinadigan soliq | 2,453.0 | 2,453.0 | 0.0 | 2,151.0 | 1,749.0 | -402.0 | 2,306.0 | 2,350.0 | 44.0 | 1,969.0 | 2,581.0 | 612.0 |
| **3** | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 7,010.5 | 6,002.5 | -1,008.0 | 7,234.0 | 7,438.5 | 204.5 | 7,755.0 | 7,078.5 | -676.5 | 7,857.0 | 7,407.5 | -449.5 |
| **4** | Qat’iy belgilangan soliq | 149.0 | 149.0 | 0.0 | 158.0 | 147.0 | -11.0 | 170.0 | 150.0 | -20.0 | 176.0 | 154.0 | -22.0 |

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **5** | Qo'shilgan qiymat solig'i | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **6** | Aksiz solig'i, jami | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| | - benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan soliq | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **7** | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **8** | Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 1,386.0 | 1,386.0 | 0.0 | 1,387.0 | 2,369.0 | 982.0 | 1,487.0 | 1,500.0 | 13.0 | 1,463.0 | 1,285.0 | -178.0 |
| **9** | Yuridik shaxslar yer solig'i | 1,904.5 | 1,904.5 | 0.0 | 2,185.0 | 2,572.5 | 387.5 | 2,343.0 | 1,625.0 | -718.0 | 2,586.0 | 2,665.0 | 79.0 |
| **10** | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i | 2,298.0 | 2,245.0 | -53.0 | 2,784.0 | 3,860.0 | 1,076.0 | 2,984.0 | 3,162.0 | 178.0 | 3,422.0 | 2,998.0 | -424.0 |
| **11** | Nedra (noruda materiallari) | 196.0 | 196.0 | 0.0 | 237.0 | 275.0 | 38.0 | 255.0 | 100.0 | -155.0 | 292.0 | 85.0 | -207.0 |
| **12** | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq* | 1,115.0 | 1,115.0 | 0.0 | 1,087.0 | 372.0 | -715.0 | 1,695.0 | 347.0 | -1,348.0 | 589.0 | 4,637.0 | 4,048.0 |

| | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **13** | Davlat boji | 809.0 | 809.0 | 0.0 | 775.0 | 775.0 | 0.0 | 830.0 | 1,238.0 | 408.0 | 783.0 | 901.0 | 118.0 |
| **14** | Jarimalar | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **15** | Yigimlar | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **16** | Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari | 10.0 | 10.0 | 0.0 | 10.0 | 10.0 | 0.0 | 11.0 | 10.0 | -1.0 | 10.0 | 18.0 | 8.0 |
| **17** | Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **18** | Boshqa tushumlar | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 | 0.0 |
| **Jami** | | **17,331.0** | **16,270.0** | **-1,061.0** | **18,008.0** | **19,568.0** | **1,560.0** | **19,836.0** | **17,560.5** | **-2,275.5** | **19,147.0** | **22,731.5** | **3,584.5** |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |

*Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining bidirishnomalari hamda tegishli mahalliy budjetlar va soliq turlari kesimida ijrosidan kelib chiqib, o‘zgartirishlar kiritiladi.*

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarorlariga asosan qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasining yilllik prognozini 40 foizga oshirilganligi inobatga olingan.*

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2025-yil 19-fevraldagi
VII-05-12-2-36-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**Kogon tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 4-chorak yakuni bilan shakllangan qo'shimcha manbalari (*2025 yil boshidagi erkin qoldiq*) hisobidan yo'naltiriladigan mablag'lar miqdorlari.**

| № | Tadbirlar nomi. | Ajratiladigan mablag'lar miqdori. *(mln.so'mda)* |
|---|---|---|
| **1.** | Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga (14.02.2022 yildagi PQ-128 ning tegishli bandiga asosan 10 kunlik "e-qaror" electron tizimiga jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilmaslik sharti bilan) yo'naltirish uchun-30% (O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli ***yangi tahrirdagi qaroriga asosan.*** | 493.500 |
| **2.** | Kogon tuman 6-sonli "Bolalar musiqa va san'at maktabi" ni moddiy -texnik bazasini rivojlantirish *(kompyuter jamlanmasi sotib olish xarajatlari- kreditor qarzdorlikga)*. | 10.000 |
| **3.** | Tuman hokimligi xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'ladigan jihozlar-asosiy vositalar olish bilan bog`liq xarajatlarni qoplash uchun (kreditor qarzdorlik). | 382.000 |
| **4.** | Tumandagi barcha turdagi bayram tadbirlariga taqdirlash maqsadida sovg`alar olish bilan bog'liq xarajatlar uchun (kreditor qarzdorlik) | 100.000 |
| **5.** | "Keksalar maslahati" guruhlari raislarini rag'batlan-tirish (PQ-92 11.03.2023 y). | 24.785 |
| **6.** | O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli ***yangi tahrirdagi qaroriga asosan,*** Qarori tegishli bandi talablariga muvofiq tuman Hokimligini saqlash xarajatlari- kreditor qarzdorlikga ***("Ye-Kengash"-36,0 mln so'm; "Ye-Ijro"-27,0 mln so'm; "Veb-sayt"-36,0 mln so'm; "Hujjatlarga ilmiy-texnik ishlov berish-arxiv xarajatlariga"-24,5 mln so'm).*** | 123.500 |
| **7.** | O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli ***yangi tahrirdagi qaroriga asosan,*** Qarorning tegishli bandi talablariga muvofiq tuman Hokimligini kreditor qarzdorliklar xarajatlariga ***(Elekt-energiya qarzdorligi).*** | 100.000 |
| **8.** | Tuman obodonlashtirish boshqarmasiga kreditor qarzdorlik, tumanda amalga oshiriladigan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun. | 297.764 |
| | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 20.12.2020 yil kuni mamlaktimiz yoshlari bilan videoselektor tarzida o'tkazilgan "O'zbekiston yoshlar forumi" 10-sonli bayonida | |

| | | |
|---|---|---|
| **9.** | har bir tumandan madaniyat va san'at sohasida faoliyat ko'rsatayotgan iqtidorli besh nafar yoshlarni o'qitish xarajatlarini tegishli mahalliy byudjetlar hisobidan qoplab berish xarajatlariga (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 06.01.2021 yildagi 02-PA1-585-sonli topshirig'ining 18-bandiga asosan 5 nafar yoshlarga 2024/2025 o'quv yili kreditor qarzdorlik kontrakt to'lovlari). | 48.236 |
| **10.** | DSI ga Mahalliy byudjetga undiriladigan yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha mavjud qarzdorlik summalarini tushumini-undirilishini ta'minlash maqsadida pochta xarajatlari-kreditor qarzdorlikga | 14.000 |
| **11.** | O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 noyabrdagi KQ-5-V-sonli ***yangi tahrirdagi qaroriga asosan,*** Qarorning tegishli bandi talablariga muvofiq tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarini, budjetdan mablag'lar oluvchilarni saqlash va ko'zda tutilmagan boshqa xarajatlariga hamda kreditor qarzdorliklarga. | 50.215 |
| **JAMI:** | | **1 644.0** |

***Ajratiladigan mablag'lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar va loyiha-smeta hujjatlariga asosan o'zgartirish kiritilishi mumkin.***